

**MASHRAB IJODIDA XALQONA TAFAKKUR VA MUMTOZ POETIK
AN'ANALAR**

Nishonova Xurshida Yusufjanovna,

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Namangan filiali Xorijiy tillar kafedrası v.b dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada Boborahim Mashrab ijodida xalqona tafakkur va mumtoz poyetik an'analarining o'zaro uyg'unligi tahlil qilinadi. Shoir she'riyatida mumtoz adabiyotga xos g'azal, muxammas va musaddas kabi janrlar, aruz vazni, tasavvufiy obraz va ramzlar bilan bir qatorda xalq og'zaki ijodiga xos sodda va ta'sirchan til, takror, nido, murojaat, qo'shiq va terma ohanglarining qo'llanilishi yoritiladi. Mashrabning xalq tili va folklor poyetikasi imkoniyatlaridan foydalanib, murakkab irfoniy g'oyalarni ommaga yaqin va tushunarli badiiy shaklda ifodalagani asoslanadi. Shuningdek, shoir ijodida Navoiy, Lutfiy, Bobur, Fuzuliy, Rumi va Attor kabi ijodkorlar an'analarining o'zlashtirilishi hamda ularning xalqona badiiy tafakkur bilan sintezlashuvi ko'rsatiladi. Tadqiqot natijasida Mashrab poyetikasida yozma adabiyot va folklor an'analarining uyg'unlashuvi shoir ijodining o'ziga xosligini belgilagan muhim estetik omil ekani aniqlanadi.

Kalit so'zlar: xalqona tafakkur, mumtoz adabiyot, folklor, xalq og'zaki ijodi, poyetik an'ana, tasavvuf, irfon, g'azal, muxammas, musaddas, qo'shiq, terma, badiiy sintez.

O'zbek mumtoz adabiyoti va xalq og'zaki ijodi azaldan bir-birini boyitib, to'ldirib kelgan ikki buyuk daryodir. Yozma adabiyot o'zining qat'iy qonuniyatlari, aruz vazni, murakkab badiiy tasvir vositalari va falsafiy-tasavvufiy konsepsiyalari bilan rivojlangan bo'lsa, folklor, ya'ni xalq og'zaki poyetik ijodi, o'zining samimiyligi, hayotiyliigi, xalqona tili, barmoq vazni hamda ohangdorligi bilan uni

oziqlantiruvchi va jonlantiruvchi manba vazifasini o'tagan. Ushbu ikki adabiy oqimning sintezi, ya'ni ularning o'zaro uzviy bog'liqligi va uyg'unlashuvi XVII–XVIII asrlar o'zbek she'riyatining yorqin namoyandasi, otashin shoir va qalandar dervish Boborahim Mashrab [1640–1711] ijodida o'zining eng yuksak cho'qqisiga erishgan [Komilov N. 1999. 178-184-betlar]. Aynan Mashrab she'riyati shunchaki qat'iy aruz qoidalariga bo'ysundirilgan klassik g'azaliyot emas, balki xalq ruhi, dardi, his-tuyg'ulari va folklorik ohanglarning vulqondek otilib chiqqan jonli ifodasidir. Shoir yozma adabiyot an'analari, xususan, Alisher Navoiy, Lutfiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va Fuzuliy singari ulug' ustozlarning tajribasi hamda tasavvufiy-orifona she'riyatning markaziy shaxslari – Jaloliddin Rumiy, Farididdin Attor va Mansur Halloj maktabini chuqur egallagan holda, ularni xalq og'zaki ijodining qo'shiq, termalari, baxshichilik va dervishona zikr aytish an'analari bilan mohirlik bilan singdirib yuborgan [Xomidiy H., Hasaniy M. 1997. 156-162-betlar]. Tadqiqotchilar, jumladan N. Komilov, G'. Salomov va J. Yusupov ta'kidlaganidek, Mashrabning isyonkor, jo'shqin va iztirobli she'riyati davrning ijtimoiy-siyosiy tengsizligiga, jaholat va riyoga qarshi ma'naviy isyon sifatida maydonga kelgan [Abdug'afurov A. 1979. 34-39-betlar]. Shoirning o'ziga xosligi shundaki, u el orasida qalandar sifatida yurib, o'z g'azal va muhammaslarini xalq yig'inlarida, bozor va maydonlarda o'qigan va kuylagan, bu holat uning asarlari yozma manbalar bilan bir qatorda og'izdan-og'izga, dildan-dilga ko'chib, xalq dostonlari hamda xalq qo'shiqlari qatoridan mustahkam o'rin olishiga olib kelgan [Qissai Mashrab 1992. 8-14-betlar].

XVII asr oxiri va XVIII asr boshlari Movarounnahrda siyosiy parokandalik, feodal urushlar hamda ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz hukm surgan o'ta murakkab bir davr edi. Ayni shu davrda adabiy va ma'naviy hayotda ikki qarama-qarshi tamoyil yaqqol ko'zga tashlandi: bir tomondan, saroy doiralarida sun'iy balandparvozlik, shaklbozlik va qat'iy qoliplarga berilish kuchaygan bo'lsa, ikkinchi tomondan, keng xalq ommasi hamda dervish-qalandarlar orasida hayotiy, samimiy, inson qalbining arzu-dodini ifodalovchi, sodda va ta'sirchan she'riyatga ehtiyoj ortib bordi [Jumaxo'ja N. 1999. 28-31-betlar]. Boborahim Mashrab aynan ikkinchi oqimning

yetakchi va eng yorqin namoyandasi sifatida gavdalandi. U Farg'ona vodiysi, xususan, Namangan adabiy muhitida voyaga yetib, Mulla Bozor Oxund hamda Ofoq Xoja kabi tasavvuf pirlari dargohida ta'lim oldi, biroq riyokorlik va dunyopparastlikka qarshi qat'iy e'tiroz bildirib, qalandarona yo'lni, ya'ni Ibrohim Adham va Mansur Halloj maktabini tanladi [Shodiyev E. 1990. 14-22-betlar]. Aynan shu tanlov uning butun ijodiy yo'nalishini belgilab berdi.

Boborahim Mashrab ijodining poydevorida yozma adabiyot va folklor sintezi yotadi. Yozma adabiyot tamoyili shundan iboratki, shoir g'azal, muhammas, murabba, musaddas, mustazod kabi klassik janrlar talablariga rioya etadi, aruzning turli bahrlaridan unumli foydalanadi va tasavvufiy-falsafiy konsepsiyalarni, xususan, vahdat ul-vujud, fanofilloh, baqobilloh kabi murakkab tushunchalarni teran ifodalaydi [Boborahim Mashrab. 1990. 5-6-betlar]. Shu bilan birga, folklor tamoyili ham uning she'riyatida kuchli namoyon bo'lib, asarlarida xalq tili va iboralari, ritmik moslashuvchanlik, maishiy-etnografik detallar, emosional-ekspressiv chaqiriqlar hamda xalqona qo'shiqlar ritmi yetakchilik qiladi. Bu ikki tamoyilning uyg'unligi Mashrab she'riyatini nafaqat o'z davri uchun, balki keyingi asrlar uchun ham noyob va betakror hodisaga aylantirdi [Zokirov M. 1984. 94-bet].

Xalq og'zaki ijodi ko'p asrlik janrlar tizimiga ega: lapar, yalla, terma, doston, qo'shiq, munozara va boshqalar. Mashrab o'zining mumtoz janrdagi asarlariga folklordagi ushbu janrlarning ichki pafosi va konstruktiv unsurlarini dadil olib kirdi. Xalq qo'shiqlarining eng muhim xususiyatlaridan biri ularning emosional soddaligi, refren [naqorat] va murojaat usuliga asoslanganligidir. Mashrabning ko'plab g'azallari xalq qo'shiqlari kabi yengil o'qiladi va tezgina yod olinadi. Masalan, shoirning "Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma, Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma. G'am shomi firoqingda kabob etti falakni, Ohi saharim, xoh inon, xoh inonma" deb boshlanuvchi mashhur g'azalida "xoh inon, xoh inonma" radifi xalq qo'shiqlaridagi naqorat vazifasini o'tamoqda. Aruzning ramal bahrida yozilgan bo'lishiga qaramay, misralarning ichki ritmi xalqona qo'shiq va yalla ohangiga to'liq mos keladi. Shoir oshiqona iztirobni o'ta samimiy va xalqona soddalik bilan yetkazib bergan, bu esa uning she'riyatiga alohida joziba bag'ishlaydi.

Baxshichilik ijrosida terma va doston aytuvchilar tomoshabinlar va tinglovchilar e'tiborini jalb qilish uchun takroriy chaqiriqlar, ritmik urg'ular hamda ketma-ket parallelizmlardan foydalanadilar. Mashrabning "Murodingg'a yetay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l, Sitam ahlin yutay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l. Egizdin dur sochay desang, sharobi ishq ichay desang, Yemonlardin qochay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l" radifli g'azali aynan shunday terma-da'vat xarakteriga ega [Boborahim Mashrab. 1990. 174-175-betlar]. Ushbu g'azalda har bir misra ichki qofiyalarga bo'lingan bo'lib, "etay desang – yutay desang – sochay desang – ichay desang – qochay desang" kabi qofiyalanish va ritm hosil qilish usuli xalq terma va dostonlaridagi usulning ayni o'zginasidir. Poyetik elementlarni qiyoslaganda, folklor termasida ritmik tuzilish qisqa, shiddatli barmoq misralaridan iborat bo'lsa, Mashrab g'azaliyatida aruzning lo'nda va serahang bahri qo'llanadi. Funksiya nuqtai nazaridan, terma chaqiriq, da'vat va ma'rifiy o'git vazifasini bajaradi, Mashrab g'azaliyati esa qalandarlik va ma'naviy isyon chaqirig'ini ifodalaydi, radif va nido esa takroriy chaqiriqlar orqali kuchaytiriladi.

Mashrab she'riyati murakkab tasavvufiy tushunchalarni xalqona sodda timsollar orqali tushuntirib berishning yetuk namunasidir. Tasavvuf adabiyotida Xudoga bo'lgan ishq – Oliy Maqsud, inson – Uning bir zarrasi, dunyo esa o'tkinchi sinov makoni hisoblanadi. Yozma manbalarda Husayn ibn Mansur Halloj va Ibrohim Adham tasavvuf tarixidagi tarixiy va piri kamil shaxslar sifatida tanilgan bo'lsa, xalq og'zaki ijodida va Mashrab talqinida bu siymolar xalqona afsonalar, mardlik, haqqoylik va el uchun jon berish simvoliga aylangan [Komilov N. 1999. 145-151-betlar]. Shoir "Mansuri Hallojdek ichib sharobi antahur, Charx urub yig'lab tururman ushbu dam dor oldida" deb o'zini Mansur Hallojga qiyoslar ekan, buni ilohiy ishq va adolat yo'lidagi xalqona fidoyilik sifatida taqdim etadi [Boborahim Mashrab. 1990. 267-bet]. Xuddi shuningdek, Ibrohim Adhamning taxtdan kechib dervishlikni tanlashi Mashrab she'riyatida nafsni yengish va halollik timsoli bo'lib xizmat qiladi: "Jahonni tark qildi Mashrabo Ibrohim Adhamdek, Saropo dard ko'rdum, muddaoni ko'rmadim hargiz" [Boborahim Mashrab. 1990. 289-bet]. Bu satrlarda tasavvufiy tushunchalar xalqona tushunish va his qilish

darajasiga tushirilgan.

Mumtoz yozma adabiyotda ma'shuqa obrazi asosan abstrakt, shartli va afsonaviy timsollar, masalan, Layli, Shirin, hurlardan baland zot orqali chizilar edi. Mashrab esa o'z g'azallarida zamondoshi bo'lgan, real hayotda uchraydigan, o'zbek va qo'shni xalqlar qizlarining etnografik va yorqin portretini yaratdi. "G'amza kofir, ishva jodu, jilva qolmoqim qani? Ko'zi yag'mo, kifriki o'q, jola qalpoqim qani? Tiri mujgon g'amzasi ko'p yor uchun devonaman, Asli qolmoq, zoti qirg'iz, lola paypoqim qani?" ushbu satrlardagi "asli qolmoq, zoti qirg'iz", "jola qalpoq", "lola paypoq" kabi detallar mutlaqo xalqona va maishiy-etnografik bo'lib, mumtoz she'riyatga folklorik reallikni olib kirdi [Boborahim Mashrab. 1990. 312-bet]. Shoir reallikdagi ko'chmachi va sahroyi qizlarning go'zalligida ilohiy husnning tajallisini ko'radi va buni hayotiy bo'yoqlarda tasvirlaydi. Bu uning she'riyatini o'z davridagi boshqa shoirlar ijodidan keskin farqlantiradi.

Yozma adabiyotning bosh mezonlari – aruz vazni bo'lsa, folklor va xalq poyetikasi – barmoq vazniga tayanadi. Mashrab she'riyatining eng buyuk yutuqlaridan biri shundaki, u aruz vaznidagi foydalanganda ham, uni barmoq vaznining ritmik moslashuvchanligiga, xalq qo'shig'ining tabiiy ohangiga yaqinlashtirib qo'llagan. Mashrab aruzning o'ta og'ir, murakkab va sun'iy bahrlaridan qochadi, asosan ramal, hazaj va rajaz bahrlarining lo'nda, ohangdor va ritmik shakllarini tanlaydi [Zokirov M. 1984. 114-bet]. Masalan,

“Bu tani xokini-yu ruhi ravonni na qilay?!”

Bo'lmasa qoshimda jonona bu jonni na qilay?!”

asar aruzning hazaji musammani solim bahrida bitilgan [Boborahim Mashrab. 1990. 203-bet]. Biroq uni o'qiganda aruzning qat'iy va quruq qoidalarini sezilmaydi; har bir misra 14 hijodan iborat bo'lib, xalq barmoq vaznidagi ikkilik [7+7] ritmiga to'liq tushadi. “Bu ta-ni xo-ki-ni-yu | ru-hi ra-von-ni na qi-lay?!” misrasida 7 hijodan iborat bo'laklar xalq qo'shiqlaridagi ritmik tuzilmani eslatadi. Ohang jihatdan esa bu g'azal xalqona qo'shiq va maqom ohangi bilan uzviy bog'liq.

Qalandarlik va darvishlik amaliyotida zikr tushish, ya'ni jahri zikr, hamda samo majlislari muhim o'rin tutadi. Mashrabning ko'plab g'azallari ayni shu zikr

paytidagi nafas olish, ritmik sakrashlar va ruhiy jazava holatini aks ettiradi. “Har kishining dardi bo‘lsa yig‘lasun yor oldida, Qolmasun armon yurakda etsun izhor oldida. Andalibi benavodek nola-vu afg‘on ila Aylanib sayrab yurarman ayni gulzor oldida” misralarida “charx urub yig‘lab tururman” iborasi faqatgina mazmunda emas, balki she‘rning poydor va ritmik tuzilishida ham o‘z tasdig‘ini topgan [Boborahim Mashrab. 1990. 245-bet]. Zikr va samo ritmi she‘rning ohangdorligini oshiradi, uning ta’sirchanligini kuchaytiradi va tinglovchini ruhiy holatga olib kiradi.

Mumtoz yozma adabiyot tili asosan arabiy va forsiy izofatlar, og‘ir istilohlar va kitobiy lison bilan to‘yingan bo‘lsa, Mashrab tili xalq tili bilan g‘oyatda mushtarakdir. Shoir xalqona iboralar, maqollar va maishiy muloqot so‘zlarini g‘azal va muhammaslariga mahorat bilan olib kirgan. “Ey sabo, g‘ambodadurman, bistarimni kavlama, Chun shafaq oludaman, xokistarimni kavlama... To kishiga dard tegmay, bo‘lmadi bag‘ri kabob, Dilda darding bo‘lmasa, dardi sarimni kavlama” misralaridagi “kavlama” fe‘li o‘zbek jonli tiliga xos bo‘lib, biror narsani titkilash, eski jarohatni qayta tirnash va bezovta qilish degan xalqona ma’nolarni bildiradi [Boborahim Mashrab. 1990. 156-bet]. “Uzru zorim senga bag‘ri toshima”, “Ko‘rundi ko‘z qarosig‘a magar xayli parizode” kabi iboralar ham xalq tilining jonli va ifodali vositalaridir. Klassik yozma adabiyotda shoir va uning oilasi, ota-onasi, yurti haqida shaxsiy poyetik kechinmalar kamdan-kam g‘azallarga mavzu bo‘lardi. Mashrab esa o‘zining ona yurti Namanganni, onasini va opasini o‘ta samimiy, folklorik qo‘shiqlar singari sog‘inch bilan kuylagan. “Namangon shahridin, do‘stlar, mening yoronlarim keldi, Otam birla onamni bilguchi mehmonlarim keldi” yoki “Jamoling ko‘rgali keldim, ayo ey mehribon onam, Mening uchun ado bo‘lg‘an yuragu bag‘ri qon opam... Seni ko‘p intizor ettim firoq o‘tiga, ey Ka‘bam, Tavofi Ka‘bai maqsuda keldim dilkashon onam” kabi misralardagi issiq insoniy tuyg‘ular, onani “Mehribon ona”, “Ka‘bam” deb atash xalq qo‘shiqlari va marsiyalarining eng go‘zal an‘analarini o‘zida aks ettiradi [Boborahim Mashrab. 1990. 218-bet].

Folklor va yozma adabiyot munosabati bir tomonlama jarayon emas. Yozma adabiyot folklordan oziqlangani kabi, xalq qalbidan chuqur joy olgan buyuk

shoirlarning asarlari ham qaytadan folklarga ko'chadi, xalq og'zaki ijodining mulkiga aylanadi. Mashrab ijodi bu hodisaning eng yorqin dalilidir. Mashrabning deyarli barcha mashhur g'azallari, xususan, "Sensan sevarim", "Mehribonim qaydasan", "Kimga aytay do'stlarim", "O'zginam" asrlar davomida xalfa, hofiz va baxshilar tomonidan xalq qo'shiqlari, yalla va maqom yo'llarida kuylanib kelinmoqda [Xoshimxonov M. 2001. 128-bet]. Bundan tashqari, Mashrab shaxsiyati va uning sarguzashtlari xalq orasida shu qadar afsonalashib ketdiki, oqibatda "Devonai Mashrab" nomli xalq kitobi, ya'ni qissa shakllandi. Bu qissada shoirning tarixiy hayoti va poyetik ijodi xalqning mo'jizakor va ilohiy tasavvurlari bilan chirmashib ketgan. N. Komilov va G'. Salomovlar ta'kidlaganidek, Mashrabning onasi homiladorlik vaqtida shubhali uzumni tishlamoqchi bo'lganda, qorindagi homiladan harom luqmadan hazar qilish haqida nido chiqqani haqidagi folklorik rivoyat – xalqning o'z sevimli shoiriga bo'lgan cheksiz mehri, uning halollik va poklik timsoli deb bilganining yorqin isbotidir [Qissai Mashrab. 1992. 238-bet]. Bu kabi rivoyatlar Mashrabning xalq qalbida qanday muqaddas va ulug' siymo sifatida saqlanib qolganini ko'rsatadi.

Boborahim Mashrab she'riyatida folklor va yozma adabiyot munosabatlarini tadqiq etish shuni ko'rsatadiki, shoir o'z ijodi bilan o'zbek mumtoz adabiyotida mutlaqo yangi, xalqona va jo'shqin qalandarona yo'nalishni yaratdi. Mashrab yozma adabiyotning aruz vazni, g'azal va muhammas shakllari hamda tasavvufiy-orifona falsafasini xalq og'zaki ijodining jo'shqin ohangi, terma va qo'shiqlar ritmi bilan mukammal darajada sintez qildi. Shoir xalq tili, maishiy-etnografik detallar va jonli emosiyalardan foydalangan holda, jamiyatdagi adolasizlik, riyokorlik va jaholatga qarshi ma'naviy isyon bayrog'ini ko'tardi. Uning she'riyati nafaqat o'z davrining ijtimoiy va ma'naviy muammolariga javob berdi, balki universal insoniy qadriyatlarni, sevgi, halollik, adolat va erkinlikni ulug'ladi. Mashrab she'riyati bugungi kunda ham o'zining hayotiyliigi, samimiyati hamda xalqona jo'shqinligi bilan tom ma'noda folklor va yozma adabiyotning oltin ko'prigi hisoblanadi. Uning otashin satrlari o'zbek ma'naviyatining boqiy va so'nmas xazinasini bo'lib xizmat qilmoqda. Mashrab ijodini o'rganish nafaqat

adabiyotshunoslik, balki tarix, falsafa, etnografiya va madaniyatshunoslik uchun ham muhim ahamiyatga ega. Uning she'riyati orqali biz o'zbek xalqining o'sha murakkab davrdagi ruhiy dunyosi, orzu-armonlari va ijtimoiy ongini chuqurroq tushunish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Mashrab merosi bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan, aksincha, har bir yangi avlod uni o'ziga xos tarzda qayta kashf etmoqda. Bu esa buyuk shoir va mutafakkirning asarlari zamondoshlari qalbida abadiy yashayotganining dalilidir.

Adabiyotlar:

1. Abdug'afurov A. Erk va ezgulik kuychilari. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. – 256 b.
2. Boborahim Mashrab. Mehribonim qaydasan. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990. – 416 b.
3. Boborahim Mashrab. Mehribonim qaydasan. – Asian Book House, 2023. – 416 b. [Litres platformasida PDF formatida].
4. Jumaxo'ja N. Milliy mustaqillik mafkurasi va adabiy meros. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasi uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 1999. – 42 b.
5. Komilov N. Tasavvuf. 2-kitob. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 1999. – 320 b.
6. Qissai Mashrab. – Toshkent: Yozuvchi nashriyoti, 1992. – 240 b.
7. Shodiyev E. Mashrab. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1990. – 185 b.
8. Xomidiy H., Hasaniy M. Mashriqzamin hikmat bo'stoni. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1997. – 251 b.
9. Xoshimxonov M. Mashrabi mo'tabar o'zum. – Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2001. – 128 b.
10. Zokirov M. Erk va ma'rifat kuychilari. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1984. – 164 b.